

NEVROLOGIYA

НЕВРОЛОГИЯ

Рецензируемый
научно-практический журнал
“НЕВРОЛОГИЯ”
Публикуется 4 раза в год

2 (90), 2022

АДРЕС РЕДАКЦИИ:

Республика Узбекистан
100007, г. Ташкент, ул. Паркентская, 51.
Тел.: 268-27-50.

Макет и подготовка к печати
проводились в редакции журнала.
Подписано в печать: 01.06. 2022 г.
Формат: 60 x 90 1/8.
Усл. печ. л. 11,16. Уч. изд. л. 7,6.
Тираж: 400 экз. Цена договорная

Оператор:
Мирзамухамедов О. Д.

Отпечатано в
ООО “GLOSSA” SHK NIM
100015, г. Ташкент, ул. Авлиё ота 93.
Тел.: (+99898)281-39-98

Журнал зарегистрирован
в Управлении печати и информации
г.Ташкента Рег. № 0129 от 06.11.2014 г.

© “Неврология” 1/2022

Электронная версия журнала
на сайтах: www.med.uz www.tipme.uz

Издается при поддержке компаний:
СП ООО “NOBEL PHARMSANOAT”
(генеральный партнер),
«BERLIN-CHEMIE», «АРТЕРИУМ»,
и представительство
«PRO.MED.CS Praha a.s.»

Главный редактор – профессор
МАДЖИДОВА Ё. Н.

Редакционная коллегия:

Алимов У.Х.
Асадуллаев М.М.
Гафуров Б.Г.
(зам. главного редактора)
Ибодуллаев З.Р.
Киличев И.А.
Мирджураев Э.М.
Матмуродов Р. Д.
Насирова И.Р.
(ответственный секретарь)
Рахимбаева Г.С.
Сабиров Д.М.
Садыкова Г.К.
Халимова З.Ю.
Халимова Х.М.
Ходжаева Н.И.
Шамансуров Ш.Ш.
Эшбоев Э. Х.

Председатель редакционного совета
Гафуров Б.Г.

Редакционный совет:

Борнштейн Н. (Израиль)
Гехт А.Б.
Дьяконова Е.Н.
Гусев Е.И.
Федин А.И.
Заваденко Н.Н.
Новикова Л.Б.
Скоромец А.А.
Чутко Л. С. (все Россия)
Нургужаев Е.С. (Казахстан)
Шералиева Рена Ханум(Азербайджан)
Ганиева М.Т.(Таджикистан)

ВОПРОСЫ КЛИНИКИ, ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ НЕРВНЫХ БОЛЕЗНЕЙ

Изюмов Д.П., Маджидова Ё.Н., Максудова Х.Н. Мухаммадсо-
лих Ш.Б.

КЛИНИКО-НЕВРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭПИ-
ЛЕПСИИ В ПРИАРАЛЬЕ.....2

Даминова Х. М.

О СЕМЕЙНОЙ ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТИ БОЛЕЗНИ ПАР-
КИНСОНА4

ВОПРОСЫ ДЕТСКОЙ НЕВРОЛОГИИ

Саидазизова Ш. Х., Шамансуров Ш. Ш.

ИНСУЛЬТ У ДЕТЕЙ И СЛУЧАИ ЕГО РЕЦИДИВА.....7

Дониёрова Ф.А.

РЕЗУЛЬТАТЫ МОЛЕКУЛЯРНО-ГЕНЕТИЧЕСКОГО АНА-
ЛИЗА ГЕНОВ MTR И MTRR СРЕДИ ДЕТЕЙ С АУТИЗ-
МОМ.....11

Акрамова Х.А., Ахмедова Д.И., Хайбуллина З.Р.

УРОВЕНЬ НЕЙРОСПЕЦИФИЧЕСКИХ АУТОАНТИТЕЛ У ДЕ-
ТЕЙ, РОЖДЕННЫХ С МАЛОЙ МАССОЙ ТЕЛА.....14

Якубова З.А., Азимова Н.М., Якубов Р.К.

ДИАГНОСТИКА НЕВРОЛОГИЧЕСКИХ НАРУШЕНИЙ В
КОМПЛЕКСНОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ ДЕТЕЙ С ДЕФЕКТАМИ
И ДЕФОРМАЦИЯМИ НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ.....18

ВОПРОСЫ НЕЙРОХИРУРГИИ

Юлдашев Р.М., Курбанов У.К.

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ
ШЕЙНЫХ СПОНДИЛОТИЧЕСКИХ РАДИКУЛОМИЕЛОПА-
ТИЙ.....20

ВОПРОСЫ СОМАТОНЕВРОЛОГИИ

Кадилова С.Р., Хамрабаева Ф.И

ПРИМЕНЕНИЕ НЕМЕДИКАМЕНТОЗНЫХ МЕТОДОВ ЛЕЧЕ-
НИЯ (МАГНИТОТЕРАПИИ И GANODERMA LUCIDUM) В ЛЕ-
ЧЕНИЕ ПАЦИЕНТОВ ЯЗВЕННОЙ БОЛЕЗНЬЮ ДВЕНАДЦА-
ТИПЕРСТНОЙ КИШКИ С ТОЛСТОКИШЕЧНЫМ ДИСБИО-
ЗОМ.....23

ВОПРОСЫ ПСИХОНЕВРОЛОГИИ

Абдукадилова Д.Т.

НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСЛОЖНЕНИЯ COVID-19 И ИХ
АДЕКВАТНАЯ ТЕРАПИЯ.....26

Шамсиев А.Т., Султанов Ш.Х., Ходжаева Н.И.

КЛИНИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ХРОНИЧЕСКОГО АЛКОГО-
ЛИЗМА В КОМБИНАЦИИ С ПОСТТРАВМАТИЧЕСКИМИ СТРЕС-
СОВЫМИ РАССТРОЙСТВАМИ.....28

Аграновский М.Л., Джураев Н.Н., Усманова М.Б.

КЛИНИЧЕСКАЯ КАРТИНА ПСИХОПАТОЛОГИЧЕСКИХ СОСТО-
ЯНИЙ ПОСЛЕ НЕЗАВЕРШЕННЫХ СУИЦИДОВ.....31

ОБЗОР

Мирджураев. Э.М. , Туракулова Д.О.

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИАГНОСТИКИ И ОПТИМИЗАЦИЯ
ВЕДЕНИЯ ПАЦИЕНТОВ С ГОЛОВНОЙ БОЛЬЮ.....34

Madjidova Y.N., Ro'zimurodov M.O., Maksudova X.N.,
Xidoyatova D.N.

DISSIRKULYATOR ENSEFALOPATIYA VA COVID-19.....36

Saidvaliyev F.S., Subxanova A.X.

MIGRENNING FARMOKOLOGIK VA NOFARMOKOLOGIK DAVOSI,
HOLATI, MUAMMOLARI, ZAMONAVIY YECHIMLARI.....39

Rahimova Sh.M., Saidvaliyev F.S., Rahimova D.M.

KATTALARDAGI BOSH OG'RIG'I KASALLIKLARIDA PRENATAL
ESTROGEN-TESTOSTERON BALANSI XAVF OMILI SIFATIDA....45

Бердиева Х.У., Садикова Г.К.

НАРУШЕНИЯ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ПРИ НЕВРОЛОГИЧЕСКИХ ЗА-
БОЛЕВАНИЯХ У ДЕТЕЙ.....52

СЛУЧАИ ИЗ ПРАКТИКИ

Рузикулов М.М., Расулов Ш.О., Хазраткулов Р.Б.

НАЛОЖЕНИЕ ЭКСТРА-ИНТРАКРАНИАЛЬНОГО МИКРОАНАСТО-
МОЗА У БОЛЬНОЙ С ГИГАНТСКОЙ АНЕВРИЗМОЙ КАВЕРНОЗ-
НОГО ОТДЕЛА ПРАВОЙ ВНУТРЕННЕЙ СОННОЙ АРТЕРИИ.....55

Зияходжаева Л.У., Бабажанова У.Т., Абидова М.А., Зияходжа-
ева Н.А.

АБСЦЕССЫ МОЗГА В ПЕДИАТРИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ.....57

ПРЕСС РЕЛИЗ

VI-РОССИЙСКО-УЗБЕКСКИЙ НЕВРОЛОГИЧЕСКИЙ ФОРУМ
«АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ КЛИНИКИ И ЛЕЧЕНИЯ НЕВРОЛОГИ-
ЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ».....59

jasini pasaytirish (statinlarni qabul qilish), antitrombotik terapiya (antiagregant va antikoagulyantlar), xotira va boshqa kognitiv funksiyalarni yaxshilaydigan dori-darmonlarni qabul qilish kerak, shuningdek, Covid 19 bilan kasallangan bemorlarda to'g'ri davolash taktikasini olib boorish va reabilitatsiya o'tkazish lozim.

Adabiyot

1. Дамулин И.В., Парфенов В.А., Скоромец А.А., Яхно Н.Н. Нарушения кровообращения в головном и спинном мозге. Болезни нервной системы. Руководство для врачей. Под ред. Н.Н. Яхно. М., Медицина; 2005. с. 231—302.
2. Шмидт Е.В. Классификация сосудистых поражений головного и спинного мозга. Журн невропатол психиатр им. С.С. Корсакова 1985;85(9):1281—8.
3. Кадыков А.С., Шахпаронова Н.В. Хронические прогрессирующие сосудистые заболевания головного мозга и деменция. *Consilium Medicum* 2002;4(2):71—7.
4. Яхно Н.Н. Когнитивные расстройства в неврологической практике. *Неврол журн* 2006;(Прил. 1):4—12.
5. Шевченко О.П., Проскурничий Е.А., Яхно Н.Н., Парфенов В.А. Артериальная гипертония и церебральный инсульт. М., РЕАФАРМ; 2001.
6. Парфенов В.А., Старчина Ю.А. Когнитивные расстройства и их лечение у больных артериальной гипертензией. *PMЖ* 2007;15(2):117—21.
7. Cerebrovascular disease, cognitive impairment and dementia. Ed. by J. O'Brien, D. Ames, L. Gustafson et al. London, Martin Dunitz; 2004.
8. Lovestone S., Gauthier S. Management of dementia. London, Martin Dunitz; 2001.
9. Толмачева В.А., Парфенов В.А. Причины головокружения у пациентов с артериальной гипертензией и его лечение. *Врач* 2007;(4):49—53.
10. Фейгин В., Виберс Д., Браун Р. Инсульт: Клиническое руководство. М., Бином; СПб., Диалект; 2005.
11. Reynolds K., Lewis B., Nolen J.D. et al. Alcohol consumption and risk of stroke: a meta-analysis. *JAMA* 2003;289:579—88.
12. Barnett H., Taylor D., Eliasziw M. et al. Benefit of carotid endarterectomy in patients with symptomatic moderate or severe stenosis. *N Engl J Med* 1998;339:1415—25.
13. Sacco R.L., Adams R., Albers G. et al. Guidelines for prevention of stroke in patients with ischemic stroke or transient ischemic attack: a statement for healthcare professionals from the American Heart Association/American Stroke Association Council on Stroke: co-sponsored by the Council on Cardiovascular Radiology and Intervention: the American Academy of Neurology affirms the value of this guideline. *Stroke* 2006;37:577—617.
14. Post-stroke antihypertensive treatment study. A preliminary result. PATS Collaborating Group. *Chin Med J (Engl)* 1995;108:710—7.
15. PROGRESS Collaborative Group. Randomised trial of a perindopril-based blood-pressure-lowering regimen among 6105 individuals with previous stroke or transient ischaemic attack. *Lancet* 2001;358:1033—41.
16. Schrader J., Luders S., Kulschewski A. et al. Morbidity and Mortality After Stroke, Eprosartan Compared with Nifedipine for Secondary Prevention: principal results of a prospective randomized controlled study (MOSES). *Stroke* 2005;36:1218—26.
17. Rothwell P.M., Howard S.C., Spence J.D.; Carotid Endarterectomy Trialists' Collaboration. Relationship between blood pressure and stroke risk in patients with symptomatic carotid occlusive disease. *Stroke* 2003;34:2583—92.
18. Amarenco P., Bogousslavsky J., Amarenco P. et al. High-dose atorvastatin after stroke or transient ischemic attack. *N Engl J Med* 2006;355:549—59.
19. Collaborative meta-analysis of randomised trials of antiplatelet therapy for prevention of death, myocardial infarction, and stroke in high risk patients. Antithrombotic Trialists' Collaboration. *BMJ* 2002;324:71—86.
20. Gent M., Blakely J.A., Easton J.D. et al. The Canadian American Ticlopidine Study (CATS) in thromboembolic stroke. *Lancet* 1989;1:1215—20.
21. Hass W.K., Easton J.D., Adams H.P. Jr. et al. A randomized trial comparing ticlopidine hydrochloride with aspirin for the prevention of stroke in highrisk patients. Ticlopidine Aspirin Stroke Study Group. *N Engl J Med* 1989;321:501—7.
22. A randomised, blinded, trial of clopidogrel versus aspirin in patients at risk of ischaemic events (CAPRIE). CAPRIE Steering Committee. *Lancet* 1996;348:1329—39.
23. The European Stroke Prevention Study (ESPS). Principal end-points. The ESPS Group. *Lancet* 1987;2:1351—4.
24. Беневольская Н.Г., Кузнецов О.Р., Румянцева С.А. и др. Нейропротективная терапия в ангионеврологии. *PMЖ* 2007;15(10):855—9.
25. Захаров В.В., Дамулин И.В., Орышич Н.А. Использование инстенона при дисциркуляторной энцефалопатии. *Неврол журн* 1999;(6):39—45.
26. Диденко О.А. Оценка фармакодинамической эффективности комплексной терапии больных дисциркуляторной энцефалопатией на фоне артериальной гипертензии и церебрального атеросклероза схемой актовегин — инстенон форте. *PMЖ* 2007;15(15):1172—6.

УДК 616.857.

MIGRENING FARMOKOLOGIK VA NOFARMOKOLOGIK DAVOSI, HOLATI, MUAMMOLARI, ZAMONAVIY YECHIMLARI

Saidvaliyev F.S., Subxanova A.X.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Kalit so'zlar: migren, davolash, xulq-atvor ko'nikmalari, komorbidlik, relaksatsiya, bosh og'rig'i.

Migren kasalligi dunyo bo'ylab nogironlikga olib keluvchi asosiy nevrologik kasallik bo'lib, insonlarning mehnat unumdorligiga, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy faoliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi [17]. Migren nasliy moillikka ega bo'lgan nevrologik kasallik [43]. Bosh og'rig'i kasalliklarining xalqaro tasnifi (ICHD) tomonidan belgilangan aniq diagnostika mezonlariga asoslanadi [51]. Migren kasalligida xurujlar sonining intensivligi bemorlar umumiy salomatligiga va moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [18]. Nevrologik kasalliklar orasida migrendan aziyat chekuvchilar soni ko'p uchraydi. Bu kasallikning uchrash darajasi yildan-yilga o'sib bormoqda. Ayollar erkaklarga qaraganda migren xurujlarini 2-3 marta

ko'proq boshdan kechiradilar va og'riqning darajasi odatdagidan ko'ra yuqoriroq bo'ladi [2].

Tadqiqotlarga ko'ra migren umumiy aholi o'rtasida 0,7% dan 22% gacha kuzatiladi [59], ayollar orasida 5-25% ga, erkaklar orasida esa 2-10% ga yetadi. Ko'pincha kasallik bolalik va o'smirlilik davrida boshlanadi. Migren kasalligi bemorlarning yoshi nisbatiga ko'ra yosharib bormoqda. Kasallikning eng yuqori cho'qqisi 25 yildan 34 yilgacha [1]. Migren eng ko'p tarqalgan global kasallik va boshqa barcha nevrologik kasalliklarga qaraganda ko'proq nogironlikga sabab bo'ladi [44,45].

Shifokorlarga qilingan murojatlarning umumiy 4,4% ni bosh og'riq kasalligi tashkil etadi [90]. Migren tashxisi bilan

kasalxonaga yotqizilganlar taxminan 5 %ni, ambulator qabul qilinganlar esa 20%ni tashkil etadi [78].

Bugungi kunga qadar migrenni davolashning ko'pgina standart mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Migrenni davolashda quyidagi yo'nalishlar mavjud:

- 1) migren kasalligini farmakologik davosi;
- 2) bemorning kasalligi haqida ta'lim-tarbiyasi;
- 3) migren kasalligining profilaktik davosi.

Migren kasalligining farmakologik davosi.

Migrenni farmakologik davolash murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:

1) migren xurujlarining soni, intensivligi va davomiyligini kamaytirish,

2) hurujlarni oldini olish,

3) kundalik faoliyatni yaxshilash va dezadaptatsiyani kamaytirish [11].

Migren farmakoterapiyasining asosiy maqsadi bemor hayotida funksional nogironlikni kamaytirish orqali simptomlarni nazorat qilishdir.

Farmakologik yondashuv quyidagilarga bo'linadi:

Migren o'tkir (migren xurujini to'xtatish uchun) davosi.

Migren profilaktik (xurujlar chastotasi, davomiyligi va intensivligini kamaytirish) davosi.

Bemorlar ushbu ikki yo'l bilan qo'llaniladigan dori vositalari o'rtasidagi asos va farqlarni tushunishlari muhimdir.

Migrenning o'tkir davosi.

Xurujlarni to'xtatishning eng samarali usuli bu dori-darmon terapiyasidir. Ko'pgina bemorlarga samarali va ijtimoiy jihatdan migren terapiyasiga qadamma-qadam yondashiladi. Birinchi bosqichda steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dorilar, yoki kombinatsiyalangan analgetiklar bilan birga simptomatik davo buyuriladi. Ikkinchi bosqichda (terapiyaning birinchi bosqichi samarasiz bo'lganda) - migrenni davolash uchun maxsus mo'ljallangan dori vositalari: triptanlardan foydalaniladi [14]. Terapiya tanlashning yana bir mezonini migrenning og'irlik darajasi hisoblanadi. Agar og'ir yoki o'rtacha intensivlikdagi migren kuzatilayotgan bo'lsa, unda bu holatda eng yaxshi vosita triptanlar guruhidan dori vositasi tavsiya qilinadi [6].

Analgetiklar. Migrenni farmakologik davolashda analgetiklardan: atsetaminofen va aspirin, diklofenak, ibuprofen va naproksen kabi og'iz orqali yuboriladigan yallig'lanishga qarshi nosteroid dori vositalari (NYaQV) yengil va o'rtacha og'irlikdagi migren xurujlari uchun birinchi darajali davolash vositasi sifatida qo'llaniladi [66,20,21]. Platsebo-nazorat ostidagi tekshiruvlarda asetaminofenni (tavsiya etilgan dozasi 1000 mg) NYaQVlarga qaraganda kamroq samarali bo'lgan, ammo oshqozon shilliq qavatini shkastlash xususiyatini keltirib chiqarmagan. [79] Aspirin 1000 mg dozada samarali bo'lib, lekin me'da-ichak tizimini zararlash xususiyati bo'yicha eng katta xavfga ega [55].

Yengil darajadagi og'riqni bartaraf etish uchun ibuprofen ikki soatda to'liq og'riqni yo'qotadi degan xulosa mavjud. Ko'pgina tadqiqotlarda 400 mg ibuprofendan foydalanilgan. Ibuprofenning yarimparchalanish davri qisqa, shuning uchun takroriy dozalash talab qilinadi. Diklofenak ham ibuprofen kabi samaralidir [60]. Naproksenning ta'siri sekinroq, ammo yarimparchalanish davri uzoqroq. Ikki soatda qisman yoki to'liq og'riqni yo'qotishi mumkin. Bu preparatning sutkalik dozalash miqdori 500 mg ni tashkil qiladi, ammo 825 mg biroz samaraliroq deb xulosa qilingan [79].

Asetaminofen-aspirin-kofein kombinatsiyasi samaradorlik jihatidan bir nechta dalillariga ega va migren uchun birinchi darajali davolash sifatida ishlatiladi. [46,47] Sinovlar doimiy ravishda NYaQVlarning platseboga qaraganda samaraliroq ekanligini ko'rsatsa-da, NYaQVlar boshqa a'zolarga salbiy ta'sirini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Og'riq qoldiruvchi dori vositalarini tez-tez qo'llash (dori-darmonlarni suiste'mol qilish) bosh og'rig'i xurujlarining rivojlanishiga olib kelishi mumkin, buning oldini olish uchun oddiy analgetiklardan > 15 va kombinatsiyalangan analgetiklardan oyiga > 10 kun iste'mol qilishdan saqlanish kerak. Migren xurujlari vaqtida ko'ngil aynashi,

qayd qilishni bartaraf etish uchun antiemetiklarni qo'llash tavsiya etiladi, chunki ular analgetiklarning samaradorligini yaxshilaydi [80]. Metoklopramid og'iz orqali yuborilganda o'rtacha ta'sirga va tomir ichiga yuborilganda yuqori samaradorlikka ega [35].

Triptanlar migren huruji vaqtida tavsiya qilinib, qanchalik erta qabul qilinsa, shunchalik samarali hisoblanadi. Triptanlardan foydalanish oyiga 9 kun bilan cheklangan, surunkali bosh og'rig'i xavfi oyiga 12 kundan ortiq triptanlardan foydalanish bilan sezilarli darajada oshadi [22]. Ko'pgina hollarda triptanning ikkinchi dozasi samarali bo'ladi. Agar triptanning birinchi dozasi samarasiz bo'lsa, preparatning ikkinchi dozasi qo'llash tavsiya etilmaydi. Yallig'lanishga qarshi nosteroid vositalar bilan triptan (naproksen va sumatriptan) kombinatsiyasidan foydalanish takroriy bosh og'rig'ini kamaytirishga yordam beradi [23].

Barcha triptanlar abuzus bosh og'rig'iga olib kelishi mumkin [61,56]. Triptanlar periferik tomirlarga, shu jumladan yurak tomirlariga ham vazokonstriktiv ta'sir ko'rsatadi [48].

Triptanlarni qo'llashda miyokard infarkti, yurak aritmiyasi, insult kabi jiddiy yondosh kasalliklari bor bemorlarga tavsiya etilmaydi. Bunday hodisalarning tarqalishi 1:1 000 000 nisbatida kuzatiladi. Xavfsizlik nuqtai nazaridan triptanlarni bosh og'rig'ining birinchi alomatlarida qo'llash tavsiya etiladi, aura vaqtida triptanlarni qabul qilish hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi [96].

Shu bilan birga triptanlar migrenni davolashda farmakotivatsion jihatdan eng maqbul bo'lgan dorilar qatoriga kiradi [7]. Migren xurujini davolashda asosiy muammolardan biri 24 soat ichida kuchaygan bosh og'rig'ining takrorlanishidir. Qiyosiy tadqiqotlarda triptanlar ergotaminlarga qaraganda samaraliroq ekanligi aniqlangan. Ergotaminlarning afzalligi - ba'zi bemorlarda og'riqning takrorlanish chastotasining kamligi bo'lsa, ushbu dorilarni uzoq muddat davom etuvchi migren hurujlari yoki og'riqning tez-tez takrorlanishi kuzatiladigan bemorlarga tavsiya etib bo'lmaydi. Ergotamin va digidroergotamin 2 mg dozada (og'iz orqali va rektal yuborish uchun dozalash shakllari) tasdiqlangan samaradorlikka ega. Ergotaminlar dori-darmonlardan kelib chiqqan bosh og'rig'ini juda tez va past dozalarda kamaytirishi mumkin. Biroq, bu preparatlarni oyiga 10 kundan ko'p qabul qilib bo'lmaydi. Preparatning asosiy nojo'ya ta'siri ko'ngil aynishi, qayd qilish, parasteziya. Ergotaminlarni tavsiya etishda bir qancha qarshi ko'rsatmalar mavjud: yurak-qon tomir va serebrovaskulyar kasalliklar, Reyno kasalligi, arterial gipertenziya, buyrak etishmovchiligi, homiladorlik va laktatsiya kabilardir [62].

Migren profilaktik davosi.

Migrenni profilaktik davosida antidepressantlardan keng foydalaniladi. Antidepressantlarning analgetik ta'siri ularning serotoninergik ta'siri bilan bog'liq bo'lib, markaziy asab tizimining serotonin retseptorlari faolligini modulyatsiya qilinishi bilan bog'liq. Tadqiqotlarda antidepressantlar migrendagi 5HT₂ serotonin retseptorlari sezgirligining oshishi va xurujlararo davrda serotonin darajasining pasayishini ko'rsatgan. Demak antidepressantlar serotonin miqdorini oshirishga va serotonin retseptorlarining sezgirligini modulyatsiya qilishga olib keladi. Antidepressantlarning eng keng tarqalgan nojo'ya ta'siri og'iz qurushi, mushaklar xolsizligi, uyquchanlik, bosh aylanishi, ich qotishi va taxikardiya [48].

b-blokatorlardan migrenni profilaktik davolash maqsadida taxminan 30 yil mobaynida foydalanib kelinadi, turli tadqiqotlarga ko'ra, ularning samaradorligi 60 dan 80% gacha. b-blokatorlar markaziy antinosiseptiv tizimlarning faoliyatini modulyatsiya qiladi va vazodilatatsiyani oldini oladi. Periferiyada b-blokatorlar katexolaminlar natijasida kelib chiqqan trombositlar agregatsiyasini va ulardan serotoninning chiqarilishini bloklaydi. Migrenni davolash uchun ushbu guruhning asosiy preparati 80 dan 240 mg gacha bo'lgan individual tanlangan dozadagi propranololdir. Uning samaradorligini o'rganish uchun 60 ga yaqin tadqiqotlar o'tkazilgan, bemorlarning 50-70 % ijobiy ta'sir qayd etilgan. Propranolol migrenni profilaktik davolashda birinchi darajali dori vositasidan biridir. Bundan tashqari metoprolol,

atenolol va timolol ham qo'llaniladi [33].

Agar bemorda arterial gipertenziya bo'lsa, b-blokatorlar boshqa vositalarga qaraganda davolash profilaktikasida ustunlikka ega. Ularning antidepressantlar bilan kombinatsiyasi davolanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Klinik amaliyotda migren xurujini oldini olish uchun ko'pincha selektiv bo'lmagan (propranolol kuniga 40-120 mg) va selektiv b-blokatorlar (atenolol kuniga 50-200 mg) qo'llaniladi. b-blokatorlarning qon bosimini tushirish effekti bo'lganligi sababli gipotenziv tavsia etib bo'lmaydi. Ularning keng tarqalgan nojo'ya ta'siri charchoq, uyqu buzilishi, depressiya, xotira pasayishi kabi psixo-emotsional buzilishlardir. Bundan tashqari migren tashxisi qo'yilgan yondosh kasalligi bo'lgan bemorlarga: yurakda muammosi borlarga, qandsiz diabetda, reyno kasalligida b-blokatorlarni tavsia etib bo'lmaydi [37].

Medikamentoz davolash samarasi har doim ham yuqori emasligi, dori-darmonlarning nojo'ya ta'sirlarini olib borishi, ularni ko'p va nazratsiz iste'mol qilish abuzus bosh og'riqlarini keng tarqalishiga olib kelmoqda. Shu sababli migrenni davolash va profilaktikasida xastalikka oid ta'limga va xulq-atvorko'nikmalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Oxirgi yillardagi ilmiy adabiyotlar taxlili shuni ko'rsatadiki, bemorlarni migren xastaligi xaqidagi ta'limga ega bo'lishi, kasallikni yengishga, xurujlarni oldini olishga va psixologik adaptatsiyaga samarali yordam beradi [67].

Migren kasalligi xaqida ta'lim tarbiya. Bemorlarga migren xaqidagi xulq-atvor ko'nikmalari to'g'risida ta'lim berish migren bilan tez-tez uchraydigan nogironlikni, stres, o'tkir bosh og'rig'ini kamaytirib uzoq muddatga hayot sifatini yaxshilaydi [27, 16]. Xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish uchun eslatmalar, dam olish amaliyoti uchun jadvallar, soatlar yoki telefonlardagi signallar, o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini beradi [57].

Migren xurujini qo'zg'atishi mumkin bo'lgan ko'p sonli va turli xil omillar xaqida ma'lumotlar mavjud. Shulardan, stress omillari, uyquning buzilishi migren xurujini eng ko'p kuchaytiradigan omillaridandir [28].

Migren kasalligida uyqu buzilishlari keng tarqalgan bo'lib [95], kasallikning surunkali turi yoki hurujlarining chastotasini ko'payishi bilan bog'liq. Migren kasalligida uyquning buzilishi umumiy patofiziologik mexanizmlarga asoslanadi [81]. Uyqusizlik, ortiqcha uyqu va rejimga rioya qilmaslik kabi muammolar epizodik migrendan surunkali migrenga o'tishda muhim omil hisoblanadi [9,10,4]. Uyqusizlik va uyqu sifatini davolash uchun xulq-atvor va kognitiv davolash usullari mavjud bo'lib, bu ikki usul birgalikda qo'llanilganda samaradorlikga erishiladi. Xulq-atvorni shakllantirishda uyquni o'zgartirish strategiyalari kunduzgi uyquni cheklash, yotoqni cheklash, stimullarni nazorat qilish va uyqu gigienasini o'z ichiga oladi [3].

Stimullarni nazorat qilish uyqusizlik va uyqu sifatining yomon odatlari bilan rivojlanadigan uyqu muhiti va uyg'onish o'rtasidagi bog'liqlikni nazorat qilishga qaratilgan. Stimullarni nazorat qilish bemordan taxminan 20 daqiqa davomida uxlay olmaganidan keyin yotoqdan turishini talab qiladi. Uxlab qolishdan ham ogohlantiriladi, chunki bu uyqu bosimini pasaytirib, asosiy dam olish davrida uyquni qiyinlashtirishi mumkin [68]. Uyqu gigienasi uyqu uchun optimal turmush tarzi va atrof-muhit omillarini o'z ichiga oladi. Turmush tarzi omillariga tungi spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaslik va uyqudan oldin nikotin va kofein kabi stimulyatorlardan foydalanmaslikni tavsia qilinadi. Yotoqxonada haddan tashqari yorug'lik va shovqinni kamaytirish uyqu gigienasi ta'limiga qaratilgan ekologik omillarga misol bo'la oladi [68].

Bundan tashqari kuchli yorug'lik, turli hid va shovqin kabi boshqa atrof-muhit omillari ham migrenga ta'sir qilishi haqida ma'lumotlar berilgan [95]. Migrenni davolashda va xurujlar sonini kamaytirish uchun qo'zg'atuvchi omillar yoki unga qarshi kurashish strategiyalari bo'yicha tavsialarning ko'pgina ro'yxati mavjud bo'lib, bunday omillarni turmush tarziga to'g'ri ko'nikmalar sifatida tadbiiq qilinsa bemorlarning hayot sifatini yaxshilash samaradorligiga erishiladi [27].

Migrenda xulq-atvor ko'nikmalaridan ovqatlanish ratsionida

parxezni to'g'rilash bosh og'rig'ining oldini olish va davolashda samarali hisoblanadi [34,38]. Migren xurujining boshlanishi muayyan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilgandan keyin paydo bo'lishi mumkin. [69,39]. Kompleks ovqatlanishning asosiy tarkibiy qismlari uglevodlar, oqsillar, yog'lar, vitaminlar va ionlarni o'z ichiga oladi. Adabiyotlarda qo'zg'atuvchi mahsulotlar sifatida: shokolad, sitrus mevalar, yong'oqlar, muzqaymoq, pomidor, piyoz, sut mahsulotlari, alkogolli ichimliklar, qahva, kofein, natriy glutamat, gistamin, tiramin, feniletilamin, nitritlar, aspartam qayd etilgan [69].

Bundan tashqari, bemorlarning yondosh kasallik (semizlik, tutqanoq, oshqozon-ichak kasalliklari, depressiya) turlariga asoslangan maxsus parhez tavsialarini berish bosh og'rig'i chastotasini kamaytirish va huruj boshlanishining oldini olishda samarali bo'lishi mumkin. Umuman olganda, migrenlar parhezga sezgir ekanligi va ba'zi oziq-ovqat tarkibiy qismlari migren hurujlarini qo'zg'atishi mumkinligi aniqlangan. Oziq-ovqat mahsulotlari qo'zg'atuvchilarining ko'pgina ro'yxati mavjud bo'lib, ammo bu sohada bahs-munozaralar saqlanib qoldi [55].

Migren xurujini yuzaga kelishida qo'zg'atuvchisi sifatida ba'zi oziq-ovqat yoki ingredientlarning yuqori miqdori sabab bo'lishi mumkin (aspartam), ba'zi mahsulotlar esa ratsiondan olib tashlangandan keyin bosh og'rig'iga olib kelishi mumkin (kofein) [29]. Bemorlarda qo'zg'atuvchi omillarni aniqlash uchun oziq-ovqat kundaliklari va maxsus serologik testlardan foydalanilgan.

Migren uchun parhez strategiyalaridan foydalangan holda ba'zi tadqiqotlarda bosh og'rig'iga emas, balki migrenning boshqa belgilariga (masalan, yorug'lik, shovqin va hidlarga sezgirlik, ko'ngil aynishi, qayd qilish, me'da ichak faoliyatini buzilishi, ishtahaning yo'qolishi, charchoq va bosh aylanishi) parhezning ta'sirini o'rganishgan [63].

Bir guruh olimlar bir qancha parhez turlarini migren kasalligida xurujlarni oldini olish mumkinligini o'rganib chiqishgan. Shulardan ketogen parhezlar neyroproteksiyaning rag'batlantirish, mitoxondriyal funksiyani yaxshilash, serotoninergik disfunktsiyani oldini olish, neyroallergiyani kamaytirish kabi ta'sirlari mavjudligi uchun taklif qilingan [64]. Keto parhezlar keton tanachalarining qon zardobida ko'payishiga olib keladi, bu esa tadqiqotlarda migrenning oldini olishda foydali ekanligi aniqlangan [50].

Migrenda past darajadagi glikemik parhez ham foydali bo'lib, ushbu parhez yallig'lanish holatini kamaytiradi. Omega-6 va omega-3 yog' kislotalarini iste'mol qilish o'rtasidagi muvozanat yallig'lanish reaksiyalarini kamaytirish, trombositlar faoliyatini yaxshilash va qon tomir tonusini tartibga solishi aniqlangan. Shu sababli, omega-6 ni kamaytirish va omega-3 yog' kislotalari iste'molini ko'paytirish migren uchun foydali bo'lishi mumkin deb qaraladi [89].

Past natriyli parhez ham migrenda tavsia qilinadi. Past natriyli parhezning ta'siri bir necha omillarga bog'liq. Kam natriyli parhez kekse insonlar uchun ko'proq foydali bo'lishi aniqlangan. Shu bilan birga, gipertenziyasi bo'lmagan va tana massasi indeksi past bo'lgan yosh ayollarda ham yuqori natriyli parhez foydali ekanligi ko'rsatilgan [30, 65]. Har qanday parhez tavsia qilinganda unga rioya qilish ma'suliyatini ham hisobga olish kerak. Bu sohada murakkablikni parhezga bog'liq bo'lgan kasalliklar (masalan, semizlik, diabet va yurak-qon tomir kasalliklari) va migren bilan bog'liq kasalliklar (masalan, depressiv holatlar) uchun ham e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, parhez turmush tarzining tarkibiy qismi bo'lib, uxlash, chekish va jismoniy mashqlar kabi boshqa turmush tarzi omillari bilan bog'liq [91].

Migren xurujlarini oldini olish uchun oziq-ovqat mahsulotlardagi qo'zg'atuvchilarni aniqlash muhim o'rinni egallagan bo'lsa-da, migrenli bemorlarda parxezni tanlash tushunchasi va parhez tartibi kamroq o'rganilgan. Migren patogenezining asosiy mexanizmlari parxezni tanlashga ta'sir qilishi mumkinligi haqidagi turli g'oyalar mavjud bo'lib, shu kungacha dolzarbligini yo'qotmagan [82].

Migrenning nofarmokologik profilaktik davosi.

Migrenni davolashda dori-darmonsiz terapiyaning ham o'ri katta. Hayot turmush tarzi va psixosotsiyal omillar ko'pincha migrenning rivojlanishida muhim ro'l o'ynaydi, farmakologik usullar esa bu muammoni hal qilmaydi. Misol uchun, stress omillari migren hurujiga olib keladigan eng ko'p sabablardan biridir. Shuning uchun, stressni kamaytirishga qaratilgan davolash usullari migrenli bemorlar uchun alohida ahamiyatga ega [74].

So'ngi vaqtlarda migrenni davolash uchun mavjud bo'lgan farmakologik dori vositalari ba'zi bemorlar tomonidan noto'g'ri qabul qilinishi ko'p uchramoqda. Og'riq qoldiruvchi turli xil dori vositalarini ko'p miqdorda iste'mol qilish kasallikni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan asoratlarni yuzaga keltirmoqda [14,49]. Nofarmakologik davo samarali usul bo'lib, uning nojo'ya ta'siri kam va bemorlarning profilaktik farmakologik davoga muhtojligini kamaytiradi [83].

Zamonaviy tibbiyotda migrenni davolashda nofarmakologik usullardan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu usullar bosh og'rig'i xurujlar sonini kamida 50% ga kamayishi aniqlangan. Nofarmakologik usullar xavfsiz va bemorlar tomonidan ijobiy qabul qilinadi.

Quyidagi nofarmakologik usullar migren davosida keng qo'llaniladi:

Relaksatsiya (dam olish)

Biologik qayta aloqa (BQA)

Kognitiv xulq-atvor terapiyasi (KXAT) [8].

Relaksatsiya: Doktor Herb Benson 1970-yillarda o'zining tadqiqoti bilan "Relaksatsiya reaksiyasi" simpatik asab tizimining faolligini pasaytirish orqali fiziologik reaksiya yaratganligini va uning bosh og'rig'ini davolashda yuqori samaradorlikni isbotlanganligini ko'rsatib, yangi zamin yaratdi [24].

Relaksatsiya usuli bemorga psixologik yordam va mushaklarni bo'shashtirishga, shuningdek, stressdan kelib chiqqan simpatik reaksiyalarning zo'riqishini kamaytirishga imkon beradi. Relaksatsiya - progressiv mushaklar bo'shashtirishni, diafragmal nafas mashqlar texnikasini o'z ichiga oluvchi usuldur. Relaksatsiya mashg'ulot ko'nikmalari bemorlarga jismoniy va ruhiy qo'zg'alishni kamaytirishga va bosh og'rig'i bilan bog'liq o'ziga xos fiziologik reaksiyalarni nazorat qilish imkonini beradi. Relaksatsiya mashg'ulotlari jarayonida bemorlar kuniga 2 marta 20-30 daqiqa mushaklarni bo'shashtirish texnikasining bosqichma-bosqich (mushaklarning progressiv bo'shashtirish, diafragma bilan nafas olish, meditatsiya mashqlari) bo'yicha ko'rsatmalar oladilar. Bemorlar mushaklarni bo'shashtirish mashqlarini o'zlashtirganlaridan so'ng, qisqa va samarali dam olish texnikasi joriy etiladi (masalan, ritm yordamida boshqariladigan dam olish, o'z-o'zini nazorat qilish) va ularga kun davomida yangi o'zlashtirilgan mashqlar texnikasini qo'llash tavsiya etiladi [52].

